

**GO‘DAKLAR O‘LIMI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR (ANDIJON VILOYATI HUDUDI MISOLIDA)**

*Siddiqova Malohat Shokirjon qizi*  
*ADU Geografiya yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Millat genofondini saqlash, nogironlik va nogiron farzandlar dunyoga kelishining oldini olish hamda tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limini kamaytirish eng ustuvor vazifalardan biridir.

**Kalit so‘zlar:** *geografik omillar, o‘lim ko‘rsatkichi, hududiy tafovutlar, geodemografik rivojlanish, sotsiologik so‘rovnoma.*

**Аннотация:** Последовательные реформы в области медицины в нашей стране имеют большое значение в воспитании здорового поколения. В число важнейших задач входят сохранение генофонда нации, предупреждение инвалидности и рождения детей-инвалидов, снижение детской смертности.

**Ключевые слова:** географические факторы, уровень смертности, региональные различия, геодемографическое развитие, социологическое исследование.

**Ключевые слова:** *элемент, первоэлемент, ассоциации, элементы, антропогенная фразеология, философские воззрения, компонент фразеологии, компонент фразеологизма.*

**Abstract:** Consistent reforms in the field of medicine in our country are of great importance in raising a healthy generation. Preserving the nation's gene pool, preventing disability and the birth of disabled children, and reducing infant mortality are among the most important tasks.

**Key words:** geographical factors, mortality rate, regional differences, geodemographic development, sociological survey.

**Kirish.** O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va davlat qurilishi sohalaridagi barcha islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad — aholi turmush farovonligini oshirib borish, har bir fuqaroning kasbiy, intellektual va ma‘naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Mamlakatimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Millat genofondini saqlash, nogironlik va nogiron farzandlar dunyoga kelishining oldini olish hamda tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limini kamaytirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Oilada sog‘lom muhit yaratish va obod turmush tarzini butun mamlakat miqyosida yoyishda chaqaloqlar o‘limini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotimizni yanada

sogʻlom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi oʻrni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yoʻnalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi boʻlmish opa-singillarimizning ogʻirini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bogʻliqdir[1].

Andijon viloyati 1941-yilda tashkil topgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy birligi hisoblanadi. Andijon viloyati Oʻzbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan boʻlib, maydoni 4,30 ming kv. km. Viloyatda 5 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Hozirgi kunda tugʻilishlar soni viloyat boʻyicha 84 mingdan ziyodni tashkil qilmoqda.

Chaqaloqlar oʻlimini kamaytirib borishning yana bir omillaridan biri oila qurishni kechiktirish yoki, birinchi farzand koʻrish yoshini uzaytirib borishdir. Jahon mamlakatlarida chaqaloqlar oʻlimi va onalarni birinchi farzand koʻrish yoshi toʻgʻrisidagi statistik jadvallar tahlili shuni koʻrsatadiki, inson qancha katta yoshda farzand koʻrsa, farzand sogʻligi va barkamol boʻlishi shuncha yuqori boʻladi. Masalan, Niderlandiya mamlakatida ayollarning oʻrtacha birinchi farzand koʻrish Yoshi 29,6 yoshni tashkil etadi. Chaqaloqlar oʻlimi esa har ming kishiga 4 kishini tashkil etadi[2]. Nigeriyada ayollarning birinchi farzand koʻrish yoshi 19 yoshni tashkil etgani holda 5 yoshgacha boʻlgan bolalar oʻlimi 145 kishini tashkil etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Andijon viloyatida chaqaloqlar oʻlimi koʻrsatkichlari geografik jihatdan oʻrganildi. Mavzuni yoritish davomida viloyatda chaqaloqlar oʻlimini yuzaga kelish sabablari va uni kamaytirish omillari oʻrganilganda ayrim muammolar aniqlandi. Jumladan;

- viloyatda ayrim yoshlarning erta turmush qurish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa oʻz navbatida sogʻlom oila shakllantirishda oʻziga xos salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

- farzand koʻrish orasidagi davri bir yilga yetmasdan kuzatilgan tugʻilishlar ham uchrashligi, sogʻlom farzand, sogʻlom avlod tarbiyalashga salbiy taʼsir etadi.

- Viloyatda kuzatilayotgan chaqaloqlar oʻlimining asosiy sabablari onaning homila davridagi orttirgan kasalligi natijasida sodir boʻlmoqda.

**Ilmiy ishning maqsadi:** Chaqaloqlar oʻlimi aholi salomatligining asosiy koʻrsatkichlaridan biri hisoblanib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, aholining demografik holatini, tibbiy xizmat sifatini, sanitariya epidemalogiya, profilaktika va davolash ishlarining samaradorligini koʻrsatuvchi muhim bir mezondir.

**Chaqaloqlar oʻlimi** deganda, bir yoshgacha boʻlgan (yaʼni, 0 oydan 12 oygacha) bolalar oʻlimi tushuniladi. **Bolalar oʻlimi** deganda 1 yoshdan 15 yoshgacha boʻlgan aholi guruhining oʻlimi tushuniladi.

Perinatal davr homila va yangi tugʻilgan chaqaloq hayotidagi eng muhim davr boʻlib, unda oʻlim ehtimolligi yuqori boʻladi (oʻz vaqtiga yetilmagan erta tugʻilgan

chaqaloqlarni ham hisobga olgan holatda). Ushbu davrga hayotning birinchi yilidagi o‘limning 70%i to‘g‘ri keladi. Perinatal o‘lim dinamikasi (ko‘rsatkichning keskin o‘zgarib turishida), shuningdek, chaqaloqlar o‘limining statistik qayd etilishidagi noaniqliklarni aks ettirishi mumkin. Chunki ushbu davrdagi tug‘ilganlar soni ham tirik, ham o‘lik tug‘ilganlarning umumiy soni bilan taqqoslanadi. Perinatal o‘lim koeffisienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P = \frac{r+l}{t} * 1000$$

Bu yerda P- perinatal o‘lim koeffisienti;

r- o‘lik tug‘ilganlar soni;

l- hayotning birinchi 7 kunigacha o‘lganlar soni;

t- barcha tug‘ilganlar soni (tirik va o‘lik);

Perinatal davrdagi homilaning asosiy sabablari asfiksiya (45 % atrofida), respirator kasalliklar (20% atrofida), tug‘ma kamqonlik (13-15%), tug‘ishdagi shikastlanish (7-9 %) va bachadon ichidagi infeksiyalar (2% atrofida) hisoblanadi.

Bir yoshgacha bo‘lgan o‘lim ko‘rsatkichlarining aksariyati boshqa yosh guruhlaridan o‘limidan yuqoriroq bo‘lib, ushbu davrdagi o‘lim ehtimoli 55 yoshga yetganlarning o‘lim ehtimoli bilan taqqoslash mumkin. Mazkur ko‘rsatkichlar boshqa yosh koeffisientlaridan farqi shundaki, u o‘ziga xos hisoblash usuli yordamida aniqlanadi. Ushbu hisoblash muhim iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Chaqaloqlar o‘limi onalar o‘limi darajasi bilan bir qatorda u reproduktiv salomatlik holatini hamda pediatriya va boshqa xizmatlar sifatini ham ko‘rsatadi.

### Chaqaloqlar o‘limini baholash mezonlari

Chaqaloqlar o‘limi koeffisientining miqdori, ‰	Chaqaloqlar o‘limi darajasining tavsifi
10 dan kam	Past
10 -19	O‘rtacha
20 -29	Yuqori
30 va undan ko‘p	Juda baland

Viloyatda aholi o‘rtasida sog‘lom bola tug‘ilishi va ularni tarbiyalash, yoshlarda sog‘lom va ahil oila qurishga, sog‘lom turmush tarzini olib borish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilishda tibbiy xizmatni yaxshi yo‘lga qo‘yib borilayotganligi bois, viloyatda tug‘ish davrida ayollar o‘lim ko‘rsatkichi keying o‘n yil davomida pasayib borganini kuzatish mumkin

**Tadqiqot metodologiyasi.** Respublika Prezidentining aholini muhofaza qilishga doir farmon va farmoyishlari, iqtisodiy geografik nazariyalar, Respublika va viloyat

statistika bosh boshqarmalari ma'lumotlari, aholini hisoblashga doir metodlar hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida demografik – statistik guruhlash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlardan, Andijon viloyati statistika boshqarmasi, Andijon viloyati sog'liqni saqlash markazi ma'lumotlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Chaqaloqlar o'limini kasalliklar turi bo'yicha tahlilida nafas a'zolari kasalliklari bilan 46,1 %, perinatal davr kasalliklari bilan 37,1 %, tug'ma nuqsonlar bilan 13,3 %, infeksiyon kasalliklar bilan 2,3 %, boshqa kasalliklar bilan 1,2 % holatlarda kuzatilgan. Barcha kuzatilgan bolalar o'lim holatlari bo'yicha joylarda tahlillar o'tkazildi.

Ko'rinib turibdiki, chaqaloqlar o'limini yuzaga keltirayotgan kasalliklar asosan nafas a'zolari kasalliklari va perinatal davr, ya'ni homiladorlikning dastlabki 28 haftasidan tug'ruqning 7 kunigacha bo'lgan davr oralig'ida orttirilgan kasalliklar hisoblanmoqda. Bu esa onalarni homiladorlik davrida tibbiy nazoratni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

**Xulosa va takliflar:** Sog'lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo'lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tizimi joriy etildi.

Jamiyatda, ayniqsa yoshlar o'rtasida ma'naviy muhit va odob-axloq, oilani mustahkamlash, oila rishtalari barqarorligini ta'minlashga mamlakatimizda har doim katta e'tibor qaratilgan va bugungi kunda ham bu an'anaga amal qilinmoqda. Sog'lom oila, oiladagi sog'lom muhit sog'lom bola tug'ilishida qanday ulkan ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida ona va bola perinatal hamda skrining markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq joylardagi barcha homilador ayollar davlat budjeti mablag'lari hisobidan sog'lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta'minlanmoqda.

Maxsus davlat dasturi doirasida zamonaviy ona va bola skrining markazlari tarmog'ining tashkil etilganiga alohida e'tibor qaratishingizni istardim. Ular ishga tushgach mamlakatimizda irsiy va tug'ma nuqsonli bolalar tug'ilishi kamaydi.

Mamlakatimizda ikki yoshgacha bo'lgan barcha bolalar bepul emlanmoqda, bu, o'z navbatida difteriya, qoqshol, poliomyelit kabi kasalliklarga butunlay barham berish imkoniyatini yaratdi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli 100 foizi yiliga ikki marta, tug'ish yoshidagi ayollar esa har yili chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. Prezident I. A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zlagan ma‘ruzasi
2. <http://data.worldbank.org>
3. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent,1999
4. Abdullaeva R, Ata-Mirzaev O., N Umarova: “O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi band ligi”. T. “Unvesitet” 2006
5. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent,1997